

**JINOYAT SUDLOV TIZIMIDA DAVLAT HISOBIDAN
ADVOKATLARNING MALAKALI YURIDIK
YORDAM KURSATISH AHAMIYATI.**

Yuldasheva D.

SamDU magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2012 yil dekabr oyida Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan jinoyat sudlov tizimida mahkumlarga huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi 67/1872-sonli qaroriga asosan xalqaro qonunchilikda jazoni o'tash muassasalaridagi jazoni o'tayotgan mahkumlarga davlat tomonidan barcha qulayliklar yaratib berilishi, jumladan tibbiy yordam, madaniy oqartuv ishlari, ayrim toifadagi mahkumlarga siyosiy ahamiyatga ega saylov jarayonlariga qatnashish va davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: advokat, jazoni o'tash muassasalari, mahkumlar huquqi, Jinoyat-Ijroya kodeksi, davlat hisobidan bepul yuridik yordam, malakali yuridik yordam, BMT, advokatlar reestri.

Аннотация: В этой статье изложено об оказании правовой помощи заключенным в системе уголовного правосудия, принятому Организацией Объединенных Наций Генеральной Ассамблеей в декабре 2012 года Согласно решению №67/1872, государство будет предоставлять все условия заключенным, отбывающим наказание в пенитенциарных учреждениях, в том числе медицинская помощь, культурная реабилитации, обсуждается право отдельных категорий заключенных участвовать в политически значимых избирательных процессах и получать юридическую помощь за счет государства.

Ключевые слова: адвокат, пенитенциарные учреждения, право заключенных, Уголовно-исполнительный кодекс, бесплатная юридическая

помощь за счет государства, квалифицированная юридическая помощь, ООН, реестр адвокатов.

Abstract: In this article the United Nations According to decision No. 67/1872 on the provision of legal assistance to prisoners in the criminal justice system, adopted by the General Assembly in December 2012, in international law the state will provide all conditions to prisoners serving sentences in penal institutions, including medical assistance, cultural rehabilitation, is being discussed the right of certain categories of prisoners to participate in politically significant electoral processes and to receive legal assistance at the expense of the state.

Key words: lawyer, penitentiary institutions, prisoners' rights, Criminal Executive Code, free legal assistance at the expense of the state, qualified legal assistance, UN, register of lawyers.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu islohatlar doirasida inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchiligimizga tadbiq etish bo‘yicha ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Buni yaqol misoli yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 27-moddasida ko‘rishimiz mumkin. “27-modda Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.”¹

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-Ijroya kodeksiga 2023 yil 15 fevralda (O‘RQ 817-son)² kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga ko‘ra mazkur kodeksining 8-moddasida mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega bo‘lishlari, mahkumlarga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala yoxud jazo turlarining qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan. Bu normalar kiritilishi davlatimiz qonunchiligi ilg‘or xorijiy mamlakatlar qonunchiligi kabi inson huquqlari va manfaatlari yo‘lida xizmat qilishidan dalolat beradi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

2 “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ 817-son 15.02.2023 y <https://lex.uz/uz/docs/6384468>)

Shuningdek, amaldagi qonunchiligimizga muvofiq jazoni o‘tash muassasalarida jazoni o‘tayotgan mahkumlarga bir qator imtiyozlar yaratilgan. Xususan, jazoni o‘tash tartibi va shartlari to‘g‘risida, o‘z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot olish, jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma‘muriyatiga, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat etish, o‘quv, badiiy va boshqa xil axborot materiallaridan foydalanish, sog‘lig‘ini saqlash, shu jumladan tibbiy xulosaga ko‘ra ambulatoriya-poliklinika va statsionar sharoitda tibbiy yordam olish, ijtimoiy ta‘minot, shu jumladan

qonunchilikka muvofiq pensiya olish, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlarida hamda referendumda ishtirok etish, davlat hisobidan bepul malakali yuridik yordam (advokatlar yordami) olish kabi huquqlariga ega.

Shaxs jazoni va jinoyat-huquqiy ta‘sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ijro etuvchi muassasalar hamda organlarning vakolatli mansabdor shaxs sudning hukmlari, ajrimlari va qarorlarini qayta ko‘rib chiqishda, ularni ijro etish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda advokatni ta‘minlash choralarini ko‘rishi mumkin.

Qonun ustuvorligiga asoslangan adolatli insonparvar va samarali yuridik yordam jinoiy sudlov tizimining eng muhim elementidir. Bu avvalo inson huquqlarini ta‘minlanishining asosi, shu jumladan adolatli va ochiq sudlov, tergov jarayoni olib borishda shaffoflik kabi mexanizmlar buning yaqol misolidir.

Ushbu prinsiplar Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2012 yil dekabr oyida Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan jinoyat sudlov tizimida mahkumlarga huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi 67/1872-sonli qarorida ham qayd etilgan. ("Принципы и руководящие положения ООН")

Jinoyat sudlov tizimida yuridik yordam olish huquqi Yevropa Konvensiyasining 6-moddasi bilan tartibga solinib, keyinchalik Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudida yanada takomillashtirilgan.

BMTning 2012 yildagi yig'ilishida jinoyat sudlov tizimida yuridik yordam olish bo'yicha "Yuridik yordam sohasidagi maxsus standartlar" ko'rsatmalari va prinsiplari qabul qilingan.

BMTning ushbu prinsiplari va ko'rsatmalari bilan birinchi marta xalqaro jinoyat sudlov tizimida kafolatlangan yuridik yordam olish huquqiga qaratilgan normativ-huquqiy baza yaratildi, ushbu prinsiplar 14 moddadan va 18 ko'rsatmalardan iborat.

BMTning prinsiplari va ko'rsatmalarida jinoyat sudlov tizimida gumonlanuvchi, aybdor, sudlanuvchi yoki jazoni o'tash muassasalaridagi mahkumlar ijtimoiy sharoitidan kelib chiqib davlat hisobidan bepul yuridik yordam olish huquqi yuzasidan alohida normalar qayd etilgan.

Nedirlandiya davlatining qonunchiligiga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi organlarning gumon qilinuvchini birinchi so'roq qilinishi jarayonida advokat ishtiroki majburiylik belgilangan. Shuni ham qayd etish lozimki gumonlanuvchining ijtimoiy sharoiti advokat jalb qilishga imkoni bo'lmagan taqdirda davlat hisobidan advokat jalb etiladi.

Nedirlandiya jinoyat sudlov tizimida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan gumonlanuvchining birinchi so'roq qilinishida berilgan ko'rsatmalari bo'yicha tuzilgan dalolatnoma uning o'ziga qarshi ishlatilishi hamda tergov davomida aniqlangan holatlar tahlil qilinganidan keyin ham uning ko'rsatmalari muhim ahamiyatga ega bo'lishi inobatga olinib, advokat gumonlanuvchi bilan so'roq qilinishidan oldin muzokara qilishi va uning ko'rsatma berish bo'yicha tuzilgan

dalolatnoma rasmiylashtirilishida ishtikor etishi lozim. Bu amaliyot gumonlanuvchini keyinchalik huquqlarini himoya qilishda yordam qiladi.

2023 yil 16 iyunda qabul qilingan “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni¹ bilan kam ta‘minlangan shaxslar, ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslar, o‘z huquqlari buzilgan, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxslar va

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш тўғрисида»ги 2023 йил 16 июндаги Қонуни.// <https://lex.uz/docs/6502543>

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq jinoyat ishi bo‘yicha advokat ishtirok etishi shart bo‘lgan taqdirda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi shaxslar davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘ldilar.

Davlat hisobidan yuridik yordamni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Mahkumlarga yuridik yordam ko‘rsatishda muhim prinsiplardan biri, uning maxfiyligi (konfidensial) bo‘lib, xususan advokatlarga mahkumlar bilan audio va video kuzatuv qurilmalari bo‘lmagan maxsus xonalarda hamda begona shaxslarning ishtirokisiz o‘z vaqtida va hech qanday to‘siqlarsiz uchrashishi ta‘minlanadi, bunda advokat va himoya ostidagi shaxsning suhbatini uchinchi shaxslar eshitishini istisno etgan holda ularni vizual ko‘rib turish imkoniyati saqlab qolinadi.

Ushbu huquqni amalga oshirish kafolatlaridan biri, maxsus uchrashuv xonasining nazarda tutilganligi bo‘lib, advokatning mahkum bilan uchrashish jarayonida elektron vositalardan (mobil telefon, fotoapparat va diktofon) foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Bu qulayliklar bilan nafaqat mahkumlarning huquqlari himoyalanoqda balki advokatlarning ham huquq va erkinliklari mustahkamlanoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida alohida 24-bobi «Advokatura» deb nomlanib, jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatishi va bu borada qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanishi, shuningdek, advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, unga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanishi, advokat, uning sha'ni, qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'lishi va qonun bilan muhofaza qilinishi advokatlar faoliyatini konstitutsiya darajasida himoya qilinishidan dalolat beradi.

Shuningdek advokat va uning kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'lishi bilan bir qatorda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish uchun tanlangan advokat fuqaroning to'lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko'rsatishdan bosh tortishga haqli emas.

Yuqoridagilarga ko'ra, davlat hisobidan yuridik yordam– “Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartib-taomillar va shartlarga muvofiq to'liq yoki qisman davlat hisobidan ko'rsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordam.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish sohasidagi asosiy prinsiplar qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, shaffoflik, xolislik, kasbiy mahorat va bilimga egalik, kamsitishga yo'l qo'yimaslik, advokatning kasb etikasi qoidalariga va advokat qasamyodiga qat'iy rioya etish, advokatlik siriga rioya etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslikdir.

Mahkumlarda davlat tomonidan yuridik yordam ko'rsatishda qonunniylikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan advokatlar davlat hisobidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun haq to'lash miqdori va tartibi belgilanadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, jazoni o‘tayotgan mahkumlarga yuridik yordam ko‘rsatishda advokat faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, ya’ni bu boradagi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi, mahkumlarning huquqlariga so‘zsiz rioya etilishini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta’minlash, jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini takomillashtirish, korrupsiya va o‘zboshimchalikni oldini olish va qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi —Advokatura to‘g‘risidagi qonun. 27.12.1996 yildagi 349-I-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jinoyat–ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori. 2018.08.11.// <https://lex.uz/docs/4045443>
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. 10-modda. <https://lex.uz/acts/163629>
5. “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni// <https://www.lex.uz/acts/29626>
6. “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni <https://lex.uz/docs/65>
7. Кузнецова О.Б. Поруадок и условиуа предоставлениуа осужденным свиданиуа с адвокатом длуа получениуа юридической помощи.//Адвокатскауа практика, 2015. №1.
8. Панасюк О. С. Необходимо устранить пробелы в Законе об адвокатуре // Адвокатскауа газета: сетевое издание. 20 сентуабруа 2018 г. <https://www.advgazeta.ru/mneniya/neobkhdimo-ustranit-probely-v-zakone-ob-advokature>